V. Y. Uvarova

Musiqiy savodxonlik

4-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik



Yangi nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2026

UO‘K: 78:373.016(075.3)
KBK 85.31ya721
U 18

Taqrizchilar:

I. M. Mirtolipova – san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi B. Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institutining fan va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori;

M. V. Isayeva – Toshkent shahar, Yunusobod tumani, T. Sodiqov nomidagi 1-son bolalar musiqa va san’at maktabi “Musiqa nazariyasi” kafedrasining oliy toifali o‘qituvchisi.

Shartli belgilar



Yangi material bilan ishlang



Savollarga javob bering



Videoni tomosha qiling



QR-kodni skanerlang



Juft bo‘lib ishlang



O‘ylab ko‘ring!



Ijodiy topshiriq



Uyga vazifa



Dars yakuni

ISBN 978-9910-586-95-8

© V. Y. Uvarova
© “Novda Edutainment”, 2026

“Musiqa xalq
yuragini o‘zida saqlaydi”.
Yunus Rajabiy

Aziz o‘quvchilar!

Qo‘lingizdagi **Musiqiy savodxonlik** darsligi sizga musiqa olamining eshiklarini ochadi. Sizni o‘quv yili davomida tovushlar va kuylarning ajib dunyosi bilan yangi uchrashuvlar kutib turibdi.

Siz musiqaning qanday paydo bo‘lgani va vaqt o‘tishi bilan uning qanday o‘zgarganini bilib olasiz, O‘zbekistonning boy musiqiy merosi, kompozitorlari va ijrochilari bilan tanishasiz. Shuningdek, musiqaning kino va myuzikllardagi ahamiyatini hamda nima uchun sevgan qo‘shiqlarimiz ko‘p yillardan keyin ham yangrashda davom etayotganini bilib olasiz.

Darslar davomida **tinglaysiz**, **kuylaysiz**, **fikr yuritasiz**, **musiqiy topishmoqlarni topasiz va kashfiyotlar qilasiz**.

Musiqa sizga yorqin taassurotlar, yaxshi kayfiyat va yangi kashfiyotlar zavqini ulashsin!




Davlat bayrog‘i – Vatanimiz ramzi

“Vatanga muhabbat uning ramzlariga bo‘lgan hurmatdan boshlanadi”.

Musiqa insonlarga o‘z hissiyotlarini ifodalash, muhim voqealar haqidagi xotiralarni saqlab qolish va o‘z Vatani haqida so‘zlashga yordam beradi. Ko‘pgina qo‘shiqlar ona zamin, uning tarixi, xalqi, shaharlari va davlat ramzlariga bag‘ishlangan. Ular xalqni birlashtirib, ona yurt an’analariga sodiqlikni ifodalaydi.

Davlat ramzlariga **bayroq**, **gerb** va **madhiya kiradi**.

Davlat bayrog‘i – O‘zbekiston Respublikasining bosh ramzlaridan biri. Davlatning muhim voqealari, bayramlari, sport musobaqalari va tantanali marosimlarida bayroq doim hamrohlik qiladi.



Musiqa davlat bayramlari, konsertlar, sport musobaqalari va mamlakat hayotidagi boshqa muhim tadbirlarda yangraydi. Vatan haqidagi qo‘shiqlar yangraganda odamlar o‘z xalqining tarixi, yutuqlari, an’analari va madaniy merosini yodga oladilar. Bunday asarlar Vatan va uning kelajagi bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi. O‘zbekiston shoir va kompozitorlari Vatan, uning ko‘rki, qadimiy shaharlari va davlat ramzlarini tarannum etuvchi ko‘plab qo‘shiqlar yaratishgan. Vatan va uning ramzlari haqidagi qo‘shiqlar o‘z yurtiga bo‘lgan mehr-muhabbat va hurmatni tarbiyalashga yordam beradi.

“Vatan bayrog‘i” qo‘shig‘i O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga bag‘ishlangan. So‘z muallifi – **Nurmuhammad Isroilov**, musiqa muallifi – **Shuhrat Zokirov**. Ushbu qo‘shiq mashhur **“Sharq” guruhi** tomonidan ijro etilgan. Uning repertuarida Vatan, ona yurtning chiroyi va unga bo‘lgan mehr-muhabbat haqida ko‘plab qo‘shiqlar jamlangan.

1

Qo‘shiqni tinglab, u qanday hissiyotlar va kayfiyat ulashishi haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Qo‘shiq nima haqida kuylangan?
2. Ushbu musiqa qanday kayfiyat ulashmoqda?
3. Nima uchun Davlat bayrog‘ini hurmat qilish muhim?



“O‘zbekiston bo‘ylab musiqiy sayohat” o‘yini.
O‘zbekistonning shaharlari tasvirlangan suratlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, ularning nomlarini topishga urinib ko‘ring.

1



mamlakatimiz poytaxti, O‘zbekistondagi yirik shahar

2



Registon maydoni bilan mashhur bo‘lgan qadimiy shahar

3



qadimiy qo‘rg‘on devorlari bilan o‘ralgan ochiq osmon ostidagi muzey-shahar

4



o‘z madrasalari bilan mashhur bo‘lgan dunyoning eng ko‘hna shaharlaridan biri

5



Sulton Saodat qadimiy yodgorlik majmuasi joylashgan shahar

6



Ichan qal’aning bosh g‘arbiy darvozasi – Ota Darvoza joylashgan shahar

1. Qaysi shaharlarni tanidingiz?
2. Qanday diqqatga sazovor joylarni bilasiz?
3. Nima uchun qadimiy shaharlar yurtimiz xazinasi deb ataladi?
4. O‘zbekistonga bag‘ishlangan yana qanday qo‘shiqlar yozish mumkin? Nima uchun?

Buxoro shahri nimasi bilan mashhur ekanligini o‘rganib keling. Keyingi darsda ushbu shahar haqida qiziqarli ma’lumotlarni aytib berasiz.

Buxoro – O‘zbekiston durdonasi

“Har bir shahar o‘z tarixini yodda saqlaydi,
musiqa esa uni tinglashga yordam beradi”.

Buxoro – O‘zbekistonning nafaqat ko‘hna shahri, balki uning musiqiy markazlaridan biri hamdir. Bu yerda ko‘p asrlar davomida xalq qo‘shiqlari yangragan, shashmaqom asarlari ijro etilgan, milliy musiqachilik an’analari esa bugungi kunda ham asrab-avaylab kelinmoqda.

Buxoro kompozitorlar va mualliflarni ushbu ko‘hna shaharning chiroyi va boy tarixini madh etuvchi asarlarni yaratishga ilhomlantiradi. Musiqa shaharning betakror muhiti, urf-odatlarga bo‘lgan hurmat va ona zaminga bo‘lgan mehr-muhabbatni ifodalashga yordam beradi.

Bugun siz **“Buxoro”** qo‘shig‘i bilan tanishib, uni yod olasiz. Qo‘shiqda har bir o‘zbekistonlik uchun tanish bo‘lgan siymolar va timsollar: shu zaminda yetishib chiqqan **allomalar**, **qad rostlab turgan go‘zal minoralar va qadimiy obidalar** jonlanadi. Ular ko‘hna Buxoroning o‘zgacha tarovatini his qilishga yordam beradi.



Buxoro

Ahmad Haydarov
so‘zi va musiqasi

2

1 Allomalar makoni,
Ko‘zga surtay tuprog‘ing.
Ilm-u hunarga konim,
Kuylay, ulug‘lay noming.

Naqarot:

Nur taratar dunyoga,
Qalbda faxrim – Buxoro.
Mehri o‘xshar daryoga,
Ona shahrim – Buxoro.
Buxoro, Buxoro,
Qalbda faxrim – Buxoro.
Buxoro, Buxoro,
Ona shahrim – Buxoro.

2 Bir-biridan chiroyli,
Obidalar rango-rang.
Minor-u masjidlari,
Ark-u toqlarga qarang.

Naqarot



3 Fidoyi farzandlaring,
Kamolingga yor bo‘lsin.
Ozod Vatan bag‘rida,
Saodating bor bo‘lsin.

Naqarot

1. Qo‘shiq qanday kayfiyat ulashmoqda?
2. Qanday qilib musiqa qadimiy shaharning tarovatini his qilishga yordam beradi?
3. Qo‘shiqdagi qaysi so‘zlar Buxoroni yorqinroq tasavvur etishga undamoqda?
4. Qo‘shiq kuyi qanday: sokin, tantanavor yoki lirik?

- Qo‘shiq to‘rtligi va naqarotidagi kayfiyat qanday o‘zgargan?
- Qo‘shiqning qaysi so‘zlarini ayniqsa ifodaliroq ijro etishni xohlaysiz?

- Qo‘shiqni yod oling.
- Ushbu qo‘shiqni sinfingiz bilan birgalikda kuylashga tayyorlaning. O‘ylab ko‘ring, qo‘shiqning qaysi so‘zlari qadimiy Buxoroning chiroyini tarannum etgan?

“Sharq taronalari”

“Musiqa har qanday mamlakatda yashovchi odamlar tushunadigan tildir”.



Har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahri butun dunyo musiqachilari uchrashadigan joyga aylanadi. Aynan shu yerda **“Sharq taronalari”** xalqaro musiqa festivali o‘tkaziladi.

Ilk festival **1997-yilda** bo‘lib o‘tgan. O‘sha davrda Samarqandga dunyoning **31 ta** mamlakatidan musiqachilar va ijrochilar kelishgan. Bugungi kunda festival **80 ta** mamlakatdan tashrif buyurgan ijrochilar, olimlar va davlat arboblarini bir joyga jamlaydi.

Festival dunyoga mashhur **Registon** maydonida o‘tkaziladi, ushbu maydon bir necha kun mobaynida ochiq osmon ostidagi ulkan konsert sahnasiga aylanadi. Bu yerda turli xalqlarning musiqasi yangraydi, konsertlar, musiqachilar uchrashuvlari, milliy cholg‘ular va liboslar ko‘rgazmalari o‘tkaziladi.



“Sharq taronalari” festivali **YUNESKO** ko‘magida o‘tkazilib, Markaziy Osiyoning yirik musiqa festivallaridan biri sanaladi. Uning bosh maqsadi dunyo xalqlarining musiqiy an’analarini saqlab qolish, odamlarni turli mamlakatlar madaniyati bilan tanishtirish, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashdan iborat.

Festival davomida musiqachilar nafaqat sahnaga chiqadilar, balki bir-birlari bilan tanishadilar, turli xalqlarning musiqasini tinglaydilar, o‘z urf-odatlari bilan tanishtiradilar, tajriba almashadilar hamda yangi musiqiy asarlar va iste’dodli ijrochilarni kashf etadilar.

“Sharq taronalari” festivalining o‘z madhiyasi bor. Uning musiqasini taniqli kompozitor **Dilorom Omonullayeva** yozgan. U musiqachilar oilasida tug‘ilgan va yoshligidan musiqa bilan shug‘ullangan. Kompozitor o‘zining ijodiy faoliyati davomida operalar, simfonik asarlar, film va spektakllarga musiqalar, shuningdek, kattalar va bolalar uchun ko‘plab qo‘shiqlar yaratgan.



Dilorom Omonullayeva
1959–2025

Dilorom Omonullayevaning asarlari nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham ijro etiladi. U mamlakatimiz musiqiy madaniyatining rivojiga va yosh ijodkorlarni yetishtirishga ulkan hissa qo‘shgan.

“Sharq taronalari” festivalining madhiyasini tinglang.

3

1. Musiqa qanday kayfiyat ulashmoqda?
2. Nega aynan bunday musiqa xalqaro festivalning ochilishiga mos keladi?
3. Ushbu madhiya qanday hissiyotlarni uyg‘otmoqda?
4. Qanday qilib musiqa turli mamlakatlarda yashovchi odamlarni birlashtiradi?

Har bir sahna chiqishi tomoshabinlarni dunyoning turli xalqlari musiqiy madaniyati bilan tanishtiradi.



O‘zbekiston



O‘zbekiston



Ispaniya



Litva



Afg‘oniston



Indoneziya

Festival davomida dunyoning turli burchaklaridan kelgan musiqachilar bitta sahnada chiqishadi. Ishtirokchilarning tili, urf-odatlari va musiqiy uslubidan qat'i nazar, ularni musiqaga bo'lgan muhabbat birlashtiradi.

Festival suratlarini tomosha qiling.









1. Festivalda san'atning qaysi turlari namoyish etilgan?
2. Qanday cholg'ularga ko'zingiz tushdi?
3. Ishtirokchilarning milliy liboslari bir-biridan qanday farqlanadi?
4. Nima uchun musiqachilarga bir-birining ijodi bilan tanishish qiziqarli?

Konsertdan keyin ham ishtirokchilar o‘zaro muloqot qilishda davom etadilar, bir-birlarining milliy cholg‘ulari va musiqiy an’analari bilan tanishadilar, yangi ijrochilarni kashf etadilar va birgalikda ijodiy loyihalar yaratadilar.

Bunday uchrashuvlar tufayli musiqa turli mamlakatlardan tashrif buyurgan odamlarning bir-birlarini tushunishiga, do‘stlik aloqalarini saqlab qolishiga va boshqa xalqlarning madaniyatini hurmat qilishiga yordam beradi.









Nima uchun **musiqa chegara bilmaydi** deb aytishadi?

Festival ishtirokchilarining chiqishlaridan birini tinglang.

4

1. Qaysi cholg‘ular tovushini eshitdingiz?
2. Ushbu asar sizga tanish bo‘lgan boshqa asarlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Ushbu sahna chiqishi qanday hissiyotlarni uyg‘otadi?
4. Turli xalqlar musiqasini nima birlashtiradi?

Musiqiy sayohat

Tasavvur qiling, siz **“Sharq taronalari”** festivalining ishtirokchisi bo‘ldingiz.

Mehmonlarni O‘zbekiston madaniyati bilan tanishtirish uchun qanday qo‘shiq yoki musiqiy asar ijro etgan bo‘lardingiz? Nima uchun aynan shunday tanlov qildingiz?

Tasavvur qiling, sinfingizga boshqa mamlakatdan bolalar kelishdi. Ularga O‘zbekistonning qanday musiqiy an’analari haqida gapirib bergan bo‘lardingiz? Mehmonlarga qaysi musiqiy cholg‘ularni ko‘rsatgan bo‘lardingiz?



Musiqa odamlarga bir-birini so‘zsiz tushunishga yordam beradi. U turli mamlakat vakillarini birlashtiradi, dunyo xalqlarining urf-odatlari bilan tanishtiradi va har bir xalqning madaniyatini hurmat qilishga o‘rgatadi.

- Festival ishtirokchilari haqida qisqacha ma’lumot tayyorlang.
- “Sharq taronalari” festivalining ramziy belgisini chizing yoki turli mamlakatlardan kelgan musiqachilarni birlashtiradigan timsol o‘ylab toping. Nima uchun bunday tasvir tanlaganingizni tushuntiring.

Musiqa maktabi – san’at olamiga yo‘l

Har bir inson turli qobiliyatlar bilan tug‘iladi. Ba’zilar rasm chizishni yoqtirsa, boshqalari raqsga tushishni, yana boshqalari esa kuylashni yoki cholg‘u chalishni xush ko‘radilar. Bolalar o‘z iste’dodlarini rivojlantirishlari uchun **musiqa**, **san’at**, **xoreografiya**, **sport** va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablarda shug‘ullanishlari mumkin.

Musiqa maktablari bir necha asrlar muqaddam paydo bo‘lgan. Ular bolalarning musiqa savodini chiqarish, cholg‘u chalish va kuylashni o‘rgatish, shuningdek, musiqiy an’analarni saqlash va bo‘lg‘usi musiqachilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan.

Bugungi kunda musiqa maktablari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladan O‘zbekistonda ham faoliyat yuritadi. Bu yerda bolalar musiqaga oid bilimlar olish bilan birga mehnatsevarlik, mas’uliyat, musiqani tinglash va uni tushunishni o‘rganadilar.



Abu Nasr al-Forobiy

X asrdayoq buyuk alloma **Abu Nasr al-Forobiy** musiqani fan sifatida o‘rgangan. U o‘zining **“Katta musiqa kitobi”** asarida tovushning qanday paydo bo‘lishi, musiqaning inson kayfiyatiga ta’siri va uning tarbiya berish jarayonidagi roli haqida tushuntirgan. Al-Forobiy musiqa insonning aqli va xotirasini rivojlantirishga hamda atrofdagi olamni yaxshiroq tushunishga yordam beradi deb hisoblagan.

Buyuk shoir **Alisher Navoiy** musiqani yuksak darajada qadrlagan va iste’dodli musiqachilarni qo‘llab-quvvatlagan. U o‘z asarlarida qo‘shiqchilar, cholg‘ular va san’atning qudrati haqida yozgan. Navoiy musiqa insonni mehrli va ma’nan boy qilishga hamda yaxshi didni tarbiyalashga yordam beradi deb hisoblagan.



Alisher Navoiy

Musiqa maktablarida bolalar **solfedjio** va **musiqa adabiyotidan** bilim oladilar, **fortepiano**, **skripka**, **damli**, zarbli va **xalq cholg‘ularini chalishni** o‘rganadilar, **vokal va xorda kuylash** bilan shug‘ullanadilar, **ansambllar va orkestrlarda** qatnashadilar.



Ko‘pgina maktablarda **xoreografiya bo‘limlari** ochilgan, u yerda bolalar mumtoz, xalq va zamonaviy raqslarni o‘rganishlari mumkin. Raqs ritm hissi va artistlik mahoratini rivojlantiradi, chiroyli qad-qomatni shakllantiradi va harakatlar muvofiqligini ta’minlaydi.









Olimlar musiqa bilan shug‘ullanish xotira, diqqat va tasavvurni rivojlantirishga hamda maktab fanlarini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam berishini aniqlaganlar.

1. Nima deb o‘ylaysiz, nima uchun ota-onalar farzandlarining musiqa yoki raqs bilan shug‘ullanishini istashadi?
2. Musiqa maktablari qanday maqsadda tashkil etilgan?
3. Musiqa maktabida qaysi fanlar o‘qitiladi?
4. Musiqa bilan shug‘ullanish qanday sifatlarni rivojlantiradi?
5. Nima uchun Al-Forobiy va Alisher Navoiy musiqaga katta e’tibor qaratishgan?

Har bir o‘quv yili do‘stlar va ustozlar bilan quvonchli uchrashuv hamda ajib hissiyotlar boshlanadi. Bu kunda ko‘p maktablarda do‘stlik, baxtli bolalik va maktab haqida qo‘shiqlar yangraydi. Ular bayramona kayfiyat yaratib, oldinda qiziqarli kashfiyotlar kutayotganini eslatadi.

Bugun biz sevimli maskanimiz haqida kuylangan **“Maktabim”** qo‘shig‘i bilan tanishamiz.

Maktabim

“Tantana” guruhi tomonidan ijro etilgan

5

1 Biz darsdan qochmaymiz, yo‘q, yo‘q, yo‘q!
Uyga ham shoshmaymiz, yo‘q, yo‘q, yo‘q!
Bu katta tanaffus, ha, ha, ha!
Yuringlar o‘ynaymiz.
Ertalab yugura-yugura
Kelamiz maktab tomon.
Bu maskan judayam-judayam
Bo‘lib qoldi qadrdon.
Alifbo o‘rgatar bizlarni o‘qishga,
Harflarni ulab, chiroyli yozishga,
Chiroyli yozishga.

Naqarot:

Maktabim, sen ikkinchi uyim,
Maktabim, senga atay kuyim. } 2 marta
Biz o‘qib olim bo‘lamiz,
Doim besh baholar olamiz.
Albatta!



2 Kundalik quvonar-quvonar,
Baholarim a’lo.
Albatta o‘rgana-o‘rgana,
Bir kun bo‘lamiz dono.
Sevimli makonim,
Ilm o‘chog‘imsan.
O‘sayotgan gullar
Chamani, bog‘isan,
Eng go‘zal chog‘imsan.

Naqarot

3 Besh baholar olamiz,
Quvnoq, zukko bo‘lamiz,
O‘qib, dono bo‘lamiz,
Albatta!
Sevimli makonim,
Ilm o‘chog‘imsan.
O‘sayotgan gullar
Chamani, bog‘isan,
Eng go‘zal chog‘imsan.

Naqarot

- “Maktabim” qo‘shig‘ini yod oling.
- Sinfdoshlaringizdan qaysi biri musiqa maktabida shug‘ullanishini so‘rab biling. Undan keyingi darsda biror cholg‘uda kichik asar chalib berishini yoki qo‘shiq kuylab berishini iltimos qiling.

